

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№12

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
dekabr




Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX
COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 173 sahifa.
2025-yil, dekabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

RASMIY RIVOJLANISH YORDAMI (OFFICIAL DEVELOPMENT ASSISTANCE, ODA) ORQALI O'ZBEKISTONDA DAVLAT MOLIYASINI BOSHQARISH (PUBLIC FINANCIAL MANAGEMENT, PFM) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	24
Pulatov Dilshod Haqberdiyevich, Ulug'ova Maftunabonu To'liqinova	
INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN LEADING WHEAT-PRODUCING COUNTRIES.....	28
Turayeva Gulizahro	
BLOKCHEYN TIZIMLARI UCHUN XESH FUNKSIYALARNI TANLASH MEZONLARI VA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	32
Abduraximov Baxtiyor, Allanov Orif, Turdibekov Baxtiyor	
RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI ASOSIDA KICHIK KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISHNI SAMARALI TASHKIL ETISH MODELLARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	39
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
ISSIQLIK AKKUMULYATORINING RAZRYADLANISH JARAYONIDA SUYUQLIK QATLAMLARIDA HARORAT TAQSIMLANISHINING BIR O'LCHOVLI MODEL	43
B.A. Hikmatov, M.S. Mirzayev	
ISLOM MOLIYASI TAMOIYILLARI ASOSIDA YASHIL LOYIHALARNI MOLIYALASHTIRISH IMKONIYATLARI.....	49
Safarova Nasiba Gulmurod qizi	
ПРИМЕНЕНИЕ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНЫХ СИСТЕМ В ОБУЧЕНИИ СПЕЦИАЛИСТОВ ПО ИНФОРМАЦИОННЫМ ТЕХНОЛОГИЯМ.....	54
Даниярова Улбосын Куатбаевна	
YANGI TURDAGI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARI KO'RSATKICHLARINI KOMPLEKS BAHOLASH	58
Ergasheva Rashida Abdug'aniyevna	
HALQALI YIGIRISH MASHINASIDA BURAM UCHBURCHAGINING IP UZILISHIGA BOG'LIQLIGINI TADQIQI.....	62
Soliyev Azizbek Kamoldinovich	
НОВЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ТУРИЗМА 2030: СТРАТЕГИЧЕСКИЕ ОРИЕНТИРЫ И РЕКОМЕНДАЦИИ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА	69
Голышева Елена Вячеславовна	
STRATEGIK JARAYONNING MODELLARI	76
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
МАТЕМАТИЧЕСКИЕ МОДЕЛИ ОЦЕНКИ СТОИМОСТИ КВАРТИР В МНОГОЭТАЖНЫХ ДОМАХ.....	81
Уринов Адхамжон Акбарович	
MATERIALLARNI MURAKKAB YASSI TRAEKTORIYALAR BO'YICHA DEFORMASIYALANTIRISHDA PLASTIK DEFORMASIYALANISH JARAYONLARI	88
A.Xakimov, X.Xakimov	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI.....	95
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
SANOAT KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARINING KETMA KETLIGI	102
Xusanova Maloxat Mengnorovna	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA LOGISTIKA XARAJATLARI TAHLILI	107
Saidova Kamola Xoshimovna	



OZIQ-OVQAT SANOATINI IQTISODIY RIVOJLANTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISHNING METODOLOGIK YONDASHUVLARI	111
Tleuv Niyetulla Raxmanovich	
YUQORI MUSTAHKAM KOMPOZIT ARMATURALARDAN FOYDALANILGAN TEMIRBETON KONSTRUKSIYALARNING YUK KO'TARUVCHANLIGI VA UZOQ MUDDATLI DEFORMATSIYALARINI BAHOLASH	114
Mamajanova Odina Alisher qizi	
KORXONALARDA DAROMADLILIK KO'RSATKICHLARINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	119
Farog'at Xo'jabekova, Eshankulova Nafisa Komiljon qizi	
TEMIR YO'L INFRATUZILMASIDA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARINI QO'LLASH: CSR, ESG VA PRI ASOSIDA BARQAROR RIVOJLANISH STRATEGIYASINI SHAKLLANTIRISH	124
Abduraxmanova Muqaddas Toxtasinovna	
THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN OPTIMIZING MARKETING AND EDUCATIONAL PROCESSES IN HIGHER EDUCATION	128
Sadikov Shoxrux Shuhratovich	
BANK FAOLIYATIDA "YASHIL" MOLIYAVIY VOSITALARDAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	133
Abduraxmonov Alimardon Sodiq o'g'li	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN LOYIHALARNI ISLOM MOLIYA INSTRUMENTLARI ORQALI MOLIYALASHTIRISH YO'LLARI	139
Xaitov Shaxzod Sharipboyevich	
BOSHQARUV PSIXOLOGIYASIGA DOIR MUAMMOLARNI BARTARAF ETISHNING ZAMONAVIY YO'NALISHLARI	145
Aripov Oybek Abdullayevich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA INNOVATSIYALARNI JORIY ETISHNING IQTISODIY SAMARALARI	150
Karimov Nodirbek	
УТИЛИЗАЦИЯ ПОБОЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПЕРЕРАБОТКИ ХЛОПКА ДЛЯ СИНТЕЗА АНТИКОРРОЗИОННЫХ КОМПОЗИЦИОННЫХ ПОКРЫТИЙ.....	155
Ситмуратов Тулкинбек Сабирбаевич, Баходиров Худайберган Баходир угли	
SANOAT KORXONALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHNING METODOLOGIK ASOSLARI.....	163
Ergashev Muhibbek Aslam o'g'li	
O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	168
Nazarova A.N.	



O'ZBEKISTON TO'QIMACHILIK SANOATIDA XORIJIY INVESTITSİYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Nazarova A.N.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti tayanch doktranti

E-mail: asalnazarova@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi to'qimachilik sanoatining bugungi holati, uning kuchli va zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlari va tahdidlari SWOT tahlil asosida o'rganilgan. Shuningdek, to'qimachilik tarmog'ida xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirishga qaratilgan ustuvor yo'nalishlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: to'qimachilik sanoati, xorijiy investitsiyalar, raqobatbardoshlik, samaradorlik, ta'minot zanjiri.

Abstract. This article presents a SWOT analysis of the textile industry of the Republic of Uzbekistan, examining its strengths, weaknesses, opportunities, and threats. The study also proposes strategic directions aimed at improving the effectiveness of foreign investments in the textile sector.

Keywords: textile industry, foreign investments, competitiveness, efficiency, supply chain.

Аннотация. В данной статье проведён SWOT-анализ текстильной промышленности Республики Узбекистан, рассмотрены её сильные и слабые стороны, возможности и угрозы. Также разработаны направления по повышению эффективности иностранных инвестиций в текстильном секторе.

Ключевые слова: текстильная промышленность, иностранные инвестиции, конкурентоспособность, эффективность, цепочка поставок.

KIRISH

Past narxda yuqori sifatli mahsulot yetkazib bera olish qobiliyati raqobat bozorida muvaffaqiyatga erishishni istagan har qanday ishlab chiqaruvchi uchun muhim shart hisoblanadi. Bu sharoitda ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlar xorijiy investorlar va texnologiyalarni jalb etish hamda jahon bozorida o'z o'rnini topish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solmoqda. Tadqiqotlarga ko'ra, xorijiy investorlarni jalb etishdan olingan foyda, ayniqsa, to'qimachilik sanoatini rivojlantirishga katta sarmoya kiritgan mamlakatlarda sezilarli bo'lishi kuzatilgan. Shu sababli, bugungi kunda O'zbekiston hukumati ham to'qimachilik sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha faol dasturlarni amalga oshirib kelmoqda.

Xususan, 2017-yil 14-dekabrda PF-5285-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlash", 2019-yil 12-fevralda PQ-4186-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini isloh qilishni yanada chuqurlashtirish va uning eksport salohiyatini kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2024-yil 1-mayda PF-71-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 28-dekabrda PQ-459-sonli "O'zbekiston Respublikasining 2023–2025-yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 21-yanvarda PF-53-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2022-yil 30-sentyabrda 556-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqur qayta ishlash va yuqori qo'shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini moliyaviy qo'llab-quvvatlashni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2024-yil 1-mayda PF-71-sonli "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatini rivojlantirishni yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmon va qarorlar to'qimachilik sanoatiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI)ni to'qimachilik sohasiga jalb etishning asosiy maqsadi – O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yuqori sifatli paxta tolasi asosida yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqaruvchi xorijiy kompaniyalarni jalb etishdan iboratdir. Ma'lumki, mamlakat to'qimachilik sanoatining asosiy xomashyosi bo'lgan paxta yetishtirish va uning eksporti bo'yicha jahon miqyosida yuqori o'rinlarda turadi. Xususan, 2025-yilda O'zbekiston paxta yetishtirish bo'yicha Xitoy, Hindiston, AQSh, Pokiston va Braziliyadan



keyin 6-o'rinni egallagan bo'lib, yiliga taxminan 1,1 million tonna paxta tolasi ishlab chiqarish potentsialiga ega [8]. Shuningdek, yurtimiz paxta eksporti bo'yicha dunyoda 5-o'rinda turadi va bu yerda yetishtirilgan paxtaning sifati G'arbiy Indiyadagi Bagama orollarida yetishtiriladigan Sea Island yoki Misr paxtasidan biroz pastroq bo'lsa-da, Xitoy, Hindiston va Pokiston kabi asosiy raqobatchilarga qaraganda yuqoriroq deb baholanadi [9].

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Biroq kuzatishlarimiz natijasida ma'lum bo'ldiki, ishlab chiqarish quvvatlarining aksariyati ip yigirish bosqichida to'plangan bo'lib, bu to'qish, bo'yash, qayta ishlash va tikuvchilik tarmoqlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa sohaga ko'proq xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ularning samarali faoliyatini ta'minlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolaning maqsadi – O'zbekistonda to'qimachilik sanoatining kuchli va zaif tomonlari hamda tashqi imkoniyatlari va tahdidlarini SWOT-tahlil orqali aniqlash va shu orqali xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish yo'nalishlarini belgilashdan iboratdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

O'zbekiston to'qimachilik sanoati va unda xorijiy investitsiyalar samaradorligini oshirish haqida so'nggi yillarda bir qator ilmiy tadqiqotlar va tahliliy ishlar chop etilgan bo'lib, ularda asosan yurtimiz to'qimachilik sanoatining rivojlanish tendensiyalari, afzalliklari, kamchiliklari, imkoniyatlari hamda tahdidlar, shuningdek sohaga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning ta'siri va jalb etish yo'llari o'rganilgan.

Yurtimiz olimlaridan Davronov [1] O'zbekiston to'qimachilik sanoatining eksport va bozor salohiyatini o'rganib, ushbu sanoat nafaqat nooziq-ovqat iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishda, balki yangi ish o'rinlari yaratish orqali ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishda muhim rol o'ynaydi, deb ta'kidlaydi.

Djanibekov va boshqalar [2] esa o'z tadqiqotlarida O'zbekiston paxtasining afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilib, paxta ishlab chiqarish O'zbekiston iqtisodiyotidagi strategik asoslardan biri ekanligini alohida qayd etdilar.

Keyinchalik Ergashxodjaeva va boshqalar [3] to'qimachilik, kiyim-kechak sektori va O'zbekistondagi klasterlash imkoniyatlarini baholab, yengil sanoat tovarlari bozorining rivojlanishi, birinchi navbatda, sanoatdagi umumiy raqobat muhiti va uni shakllantiruvchi omillarga bog'liqligini aniqladilar.

Yana bir olim, Mamadiev [4], O'zbekiston to'qimachilik sanoatining kuchli va zaif tomonlarini tadqiq qilib, sanoat bo'yicha aniq ma'lumotlarni taqdim etdi va har bir omilning tavsifiy tahlilini o'tkazdi. U quyidagi muammolar to'qimachilik sanoati rivojlanishiga to'sqinlik qiladi, degan xulosaga keldi: eskirgan texnologiyalar, past foydalanish koeffitsienti, yuqori soliq yuki, korxonalarning beqaror moliyaviy holati, dehqonlar va paxta tolasi ishlab chiqaruvchi korxonalar o'rtasida moliyaviy rag'batlarning yo'qligi hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning yetishmasligi.

Revetria va boshqalar [5] mavjud quvvatlar va resurslardan oqilona foydalanish zarurligiga hamda to'qimachilik sanoati (umuman yengil sanoat)ning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyatiga e'tibor qaratdilar. Shuningdek, ular o'z tadqiqotlarida rivojlanish strategiyalarining ba'zi jihatlarini muhokama qilib, xorijiy davlatlarning afzalliklarini ham tahlil qildilar.

Tillyakhodjaev [6] esa SWOT-tahlil orqali O'zbekiston to'qimachilik va kiyim-kechak ta'minot zanjiri uchun marketing strategik rejalashtirishni taklif qildi. Muallif to'qimachilik va kiyim-kechak ta'minot zanjirini yuqori va past daromadli bosqichlarga bo'lishni tavsiya etdi. Olimning fikricha, chakana savdo va brendlar innovatsiya, marketing va chakana savdo kabi yuqori daromadli bosqichlarni saqlab qolishi kerak; xomashyo manbalari, ishlab chiqarish va yig'ish, qadoqlash kabi past daromadli bosqichlar esa o'rta zanjir yetkazib beruvchilari va dunyodagi arzon ishlab chiqaruvchilarga outsorsing qilinishi lozim.

Nihoyat, xitoylik tadqiqotchi Kim [7] o'zining "An analysis of the development of textile industry and its investment attractiveness in Uzbekistan" nomli maqolasida O'zbekiston to'qimachilik sanoatining investitsiya jozibadorligini tahlil qilgan va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning sanoatni global qiymat zanjirlariga integratsiya qilishda muhim omil ekanligini ko'rsatgan. Shu bilan birga muallif infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi kabi to'siqlarni ta'kidlab, ularni xorijiy investorlar uchun asosiy to'siqlar sifatida baholagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI


Ilmiy maqolani yoritishda to'qimachilik tarmog'i va undagi zamonaviy tendensiyalarga oid O'zbekiston Respublikasining qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari, iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy sohalaridagi taniqli olimlarning ilmiy asarlari hamda ularning mazmun-mohiyati o'rganildi. Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida mavzuga oid statistik ma'lumotlar va nazariyalarni o'rganishda mantiqiy fikrlash, ilmiy mushohada, tizimli yondashuv, statistik hamda qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi. Shuningdek, mavzuni yoritishda ilmiy-texnikaviy axborot manbalaridan, ya'ni darsliklar, o'quv

qo'llanmalar, xorijiy adabiyotlar, davriy matbuot, ilmiy-amaliy anjumanlar to'plamlari va internet ma'lumotlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekistonda to'qimachilik sanoati an'anaviy ishlab chiqarish ustunligiga ega bo'lib, iqtisodiy rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Ushbu sohadan olingan foyda mamlakat ishlab chiqarish tizimini chuqurlashtirish va kengaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, mazkur tarmoq ishsizlik va qashshoqlikni kamaytirishda, ayniqsa qishloq joylardagi kam malakali ishchi kuchi va ayollarni band qilish orqali muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Shu bois, hukumat to'qimachilik sanoatiga katta e'tibor qaratadi va doimiy ravishda sohani barqaror rivojlantirish rejalarini ishlab chiqadi. Jumladan, paxta xomashyosi eksportidan tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish bo'yicha islohatlar milliy iqtisodiyotning xomashyo bozoridagi beqarorlikdan himoyalash salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, xususiylashtirish va xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar esa sohaning tez va samarali faoliyatini ta'minlashga yordam beradi.

Quyidagi diagrammada 5 yillik davr davomida mamlakatimizda ishlab chiqarilgan to'qimachilik mahsulotlari hajmi va sohaga kiritilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) dinamikasi tasvirlangan:



1-rasm. To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va sohaga kiritilgan TTXI dinamikasi (2020-2024)

O'zbekiston to'qimachilik sanoati bugunga qadar ko'pgina ijobiy o'zgarishlarga, xususan to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va xorijiy investitsiyalar hajmidagi sezilarli o'sish ko'rsatkichlariga erishgan bo'lsa-da, bugungi kundagi shiddatli global raqobat, ekologik talablar va texnologik yangilanish zarurati sohada yana yangi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Buni biz umumiy ko'rinishda quyidagi SWOT tahlilida ko'rishimiz mumkin:



2-rasm. O'zbekiston to'qimachilik sanoatining SWOT tahlili



Yuqoridagi tahlilga ko'ra, tarmoqning asosiy ustun jihatlaridan biri – boy xomashyo bazasi va klaster tizimining shakllanganligidir. Bu holat ishlab chiqarishning uzluksizligini ta'minlash, resurslardan samarali foydalanish hamda mahalliy xomashyolar asosida tayyor mahsulot ishlab chiqarish imkonini yaratadi. Shuningdek, nisbatan arzon va malakali ishchi kuchining mavjudligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi hamda tarmoqning eksport salohiyatini oshiradi. Soliq va bojxona imtiyozlari, shuningdek, hukumat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Strategik geografik joylashuv esa logistika imkoniyatlarini kengaytiradi va mintaqaviy savdo yo'nalishlarida qulay pozitsiyani ta'minlaydi. Bundan tashqari, xalqaro hamkorlik tajribasi tarmoqning texnologik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi. Katta ichki va mintaqaviy bozor esa ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barqaror talabini kafolatlaydi.

Tarmoqning rivojlanish istiqbollari yuqori bo'lib, bunda bir nechta imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va mahsulot sifatini yaxshilash mumkin. Ikkinchidan, xalqaro bozorlarga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda. Xususan, qo'shni mamlakatlar bilan integratsiya jarayonlari, savdo shartnomalari va transport infratuzilmasining rivojlanishi yangi eksport yo'nalishlarini ochib beradi. Bundan tashqari, yashil iqtisodiyot va ekologik toza ishlab chiqarish tamoyillarini to'qimachilik korxonalariga joriy etish orqali xalqaro standartlarga mos, ekologik jihatdan barqaror rivojlanish ta'minlanishi mumkin.

Tashqi muhit omillari ichida eng asosiy tahdid – global raqobatning kuchayishidir. Xalqaro bozor sharoitida yangi raqiblarning paydo bo'lishi mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun narx va sifat bo'yicha bosimni oshiradi. Ekologik talablarning kuchayishi ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, iqlim o'zgarishi va suv tanqisligi tarmoqning resurs bazasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Global savdo cheklavlari, texnologik qaramlik hamda valyuta va moliyaviy xavflar iqtisodiy barqarorlikni izdan chiqarishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ida xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun keng imkoniyatlar mavjud. Biroq ularning samaradorligini ta'minlash uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlarga e'tibor qaratish zarur:

- Texnologik modernizatsiya va innovatsion ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash.
- To'qimachilik korxonalarida ekologik barqarorlik va "yashil" ishlab chiqarish konsepsiyalarini joriy etish.
- Inson kapitalini rivojlantirish va dual ta'limni rag'batlantirish.
- Logistika samaradorligini oshirish va eksportni diversifikatsiya qilish.
- Xalqaro brendlar bilan hamkorlikni chuqurlashtirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulot ishlab chiqarish.
- Sintetik tolalar ishlab chiqarishni rivojlantirish, kimyo va to'qimachilik sanoatlari o'rtasida integratsiya va hamkorlikni mustahkamlash.
- Klaster tizimini kichik korxonalar uchun kengaytirish.

Fikrimizcha, mazkur yo'nalishlar xorijiy investitsiyalarni yanada samarali jalb etish, ularni uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga yo'naltirish hamda O'zbekiston to'qimachilik tarmog'ining xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davronov, O. *The Export Potential of Uzbekistan's Textile Industry*; Tashkent Institute of Textile and Light Industry: Tashkent, Uzbekistan, 2015; pp. 11–14.
2. Djanibekov, N.; Rudenko, I.; Lamers, J.; Bobojonov, I. *Pros and Cons of Cotton Production in Uzbekistan*. In Case Study #7–9 of the Program: *Food Policy for Developing Countries: The Role of Government in the Global Food System*; Cornell University: Ithaca, NY, USA, 2010.
3. Ergashxodjaeva, S.J.; Krivyakin, K.S.; Tursunov, B.O.; Hakimov, Z.A. *Evaluation of Textile and Clothing Industry Clustering Capabilities in Uzbekistan: Based on Model of M. Porter*. *Int. J. Econ. Manag. Sci.* 2018, 7, 493.
4. Mamadiyev, G. *An Investigation into the Textile Industry of Uzbekistan: Pros and Cons*. Master's Thesis, Ajou University, Gyeonggi-do, Korea, 2007.
5. Revetria, R.; Maxamadaminovich, U.K.; Mirzaliyeva, G. *Production Advantages in Textile and Light Industry and Features of Effective Using of Them in Uzbekistan*. In *Proceedings of the 8th International Conference on Management, Marketing and Finances (MMF'14)*, Cambridge, MA, USA, 29–31 January 2014; pp. 93–98.
6. Tillyakhodjaev, A. *Marketing Strategic Planning for the Textile and Clothing Supply Chain*. *Voice Res.* 2006, 5, 32–34.
7. Kim, S. *An Analysis of the Development of Textile Industry and Its Investment Attractiveness in Uzbekistan*. *Journal of Economic Development Studies*, 2019, 12(2), 78–90.
8. Straits Research. *Top Cotton-Producing Countries Globally*. Available online: <https://straitsresearch.com/statistic/top-cotton-producing-countries-globally> (accessed 2025-12-04).
9. KOTRA. *Entry Strategy: Uzbekistan*; KOTRA: Seoul, Korea, 2018.
10. Lex.uz. Available online: <https://lex.uz> (accessed 2025-12-04).
11. Stat.uz. Available online: <https://stat.uz/> (accessed 2025-12-04).

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100